

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884



ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol.2 N.1

2026

**International Journal of
Contemporary Scientific
and Technical Research**

**Volume 2 Issue 1
2026**

**Zamonaviy ilmiy-texnik
tadqiqotlar xalqaro jurnali**

**1-son
2026**

**Международный журнал
современных научно-
технических
исследований**

**Том 2 Выпуск 1
2026**



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas'ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay'ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O'zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O'zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O'zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro'yxatidan o'tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O'zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© "O'zMU Jizzax filiali" – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko'chasi, 259-uy.

BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARIDA TARIXIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, tayanch doktorant

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik va amaliy-pedagogik asoslari tadqiq etilgan. Oliy ta'lim tizimida talabalarning tahliliy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi obyektiv va subyektiv omillar, zaruriy shart-sharoitlar hamda innovatsion ta'lim muhitini yaratish masalalari yoritilgan. Tadqiqot doirasida interfaol metodlar, muammoli ta'lim texnologiyalari, birlamchi tarixiy manbalar bilan ishlash va raqamli texnologiyalarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tarixiy tafakkur, pedagogik shart-sharoitlar, muammoli ta'lim, interfaol texnologiyalar, tanqidiy tahlil, tarixiy empatiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ

Джуманиязов Фарход Улугбекович

Самаркандский институт агроинноваций и исследований, базовый докторант

Аннотация

В данной статье исследуются теоретико-методологические и практико-педагогические основы развития исторического мышления у будущих учителей истории. Освещаются объективные и субъективные факторы, необходимые условия, а также вопросы создания инновационной образовательной среды, способствующей повышению аналитического потенциала студентов в системе высшего образования. В рамках исследования научно обоснована значимость интерактивных методов, технологий проблемного обучения, работы с первичными историческими источниками и цифровых технологий.

Ключевые слова: историческое мышление, педагогические условия, проблемное обучение, интерактивные технологии, критический анализ, историческая эмпатия.

PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING HISTORICAL THINKING IN FUTURE HISTORY TEACHERS

Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich

Samarkand Institute of Agro-Innovations and Researches, Doctoral Researcher

Abstract

This article explores the theoretical, methodological, and practical pedagogical foundations for the development of historical thinking in future history teachers. It highlights the objective and subjective factors, necessary conditions, and issues of creating an innovative educational environment that serves to enhance the analytical potential of students in the higher education system. The study scientifically substantiates the importance of interactive methods, problem-based learning technologies, working with primary historical sources, and digital technologies.

Keywords: historical thinking, pedagogical conditions, problem-based learning, interactive technologies, critical analysis, historical empathy.

Tafakkur – insonning voqelikni, narsa va hodisalar o'rtasidagi muhim aloqa va munosabatlarni bilvosita hamda umumlashtirib aks ettiruvchi murakkab kognitiv jarayondir. Tafakkur inson aqliy faoliyatining eng oliy

shakli bo'lib, u mavjud bilimlarga tayangan holda yangi bilimlarni yaratishga xizmat qiladi. Biroq, "tarixiy tafakkur" oddiy mantiqiy fikrlashdan o'zining obyekti va maqsadlari bilan keskin farq qiladi. U o'tmish, bugun va kelajak o'rtasidagi uzviylikni anglash qobiliyatidir. Tarixiy tafakkur tarkibini aniqlashda uni faqat tarixiy bilimlar majmui sifatida emas, balki shaxsning tarixiy voqelikni anglash, baholash, dalillash va undan ijtimoiy-pedagogik xulosa chiqarish qobiliyati sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Chunki tarixiy tafakkur shakllangan talaba o'tmishdagi voqea-hodisalarni oddiy ketma-ketlikda eslab qolish bilan cheklanmaydi, balki ularning kelib chiqish sabablari, rivojlanish dinamikasi, ishtirokchilar manfaatlari, ijtimoiy oqibatlar hamda bugungi kun bilan aloqadorligini tahlil qila oladi.

Bo'lajak tarix o'qituvchisida tarixiy tafakkurning rivojlanishi, avvalo, uning tarixiy faktga nisbatan munosabatida namoyon bo'ladi. Agar talaba tarixiy faktni tayyor va o'zgarmas ma'lumot sifatida qabul qilsa, uning tafakkuri reproduktiv darajada qoladi. Aksincha, tarixiy faktni manbalar, davr sharoiti, ijtimoiy-siyosiy vaziyat va turli tarixiy qarashlar asosida tahlil qilsa, unda mustaqil fikrlash, dalillash va xulosa chiqarish malakalari shakllanadi. Shu jihatdan tarixiy tafakkur tarixiy bilim, tarixiy xotira, tanqidiy fikrlash, qadriyatli munosabat va metodik kompetensiyaning o'zaro uyg'unligida namoyon bo'ladigan murakkab pedagogik hodisadir.

Bo'lajak tarix o'qituvchisi uchun tarixiy tafakkur nafaqat shaxsiy intellektual sifat, balki kasbiy faoliyatning muhim metodik asosi hamdir. Chunki u kelgusida o'quvchilarga tarixiy bilim berish jarayonida tayyor xulosalarni yetkazuvchi emas, balki ularni tarixiy hodisani mustaqil tahlil qilishga, manbalar bilan ishlashga, sabab-oqibat bog'liqligini aniqlashga va tarixiy jarayonlarga nisbatan asosli munosabat bildirishga yo'naltiruvchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi.

Tarixiy tafakkur quyidagi tarkibiy elementlardan iborat:

Xronologik anglash: Voqea va hodisalarni vaqt o'qida to'g'ri joylashtirish va ularning davriyligini his etish.

Sabab-oqibat aloqadorligi: Tarixiy jarayonlar o'z-o'zidan yuz bermasligini, har bir inqilob, islohot yoki inqirozning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy tagzamini borligini tushunish.

Tarixiy empatiya: Voqealarni bugungi kun qoliplari bilan emas, balki o'sha davr ruhiyati, jamiyatning axloqiy-huquqiy me'yorlari nuqtai nazaridan baholay olish.

Manbalarga tanqidiy yondashuv: Tarixiy dalillarni qiyosiy tahlil qilish, xolislikni subyektiv qarashlardan ajrata bilish.

Tarixchi olim N.Jo'rayev o'zining tarix falsafasiga oid tadqiqotlarida tarixiy tafakkurni shaxsning milliy o'zlikni anglashidagi asosiy omil sifatida baholab, "Tarixiy xotira va tafakkur – xalqning o'z o'tmishini ongli qabul qilishi va undan kelajak uchun to'g'ri xulosalar chiqara olish qudratidir", deb ta'kidlaydi [1]. Oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan tarix o'qituvchisining asosiy vazifasi – faqatgina sanalar, shaxslar va voqealarni o'quvchilar xotirasiga joylash emas, balki yosh avlodda analitik va tanqidiy fikrlash madaniyatini shakllantirishdir.

Davlatimiz rahbari Sh.M. Mirziyoyevning "Tarixiy xotirasi bor inson – irodali inson. Kim bo'lishidan qat'i nazar, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilishi kerak", degan fikrlari aynan tarix o'qituvchilari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi [2]. Bu mas'uliyatni ado etish uchun o'qituvchining o'zi yuksak darajadagi tarixiy tafakkurga ega bo'lishi shart. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida tarixiy tafakkurning funksiyalari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Gnoseologik funksiya: O'qituvchining doimiy ravishda yangi tarixiy bilimlarni izlab topishi, o'rganishi va o'zlashtirishi.

Konstruktiv-loyihalashtirish funksiyasi: Dars jarayonini shunday rejalashtirishki, unda o'quvchilar oddiy tinglovchidan tarixiy jarayonlarni kashf etuvchi tadqiqotchilarga aylansin.

G'oyaviy-tarbiyaviy funksiya: Tarixiy voqealar tahlili orqali o'quvchilarda milliy g'urur, vatanparvarlik va mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

Zamonaviy o'qituvchi axborot uzatuvchidan o'quvchining idrokini yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi maqomiga o'tishi zarur. Bu jarayon bevosita o'qituvchining tahliliy-tarixiy tafakkur ko'lamiga bog'liq. Mustaqillik

yillarida O'zbekiston tarixshunosligi va tarix o'qitish metodikasi sovet davridagi sinfiy-partiyaviy yondashuvlardan to'la voz kechib, xolis va haqqoniy milliy tarixni yaratish yo'liga o'tdi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarda yangicha tarixiy tafakkurni shakllantirishni kun tartibiga qo'ydi. O'zbekistonlik olimlarning bu boradagi izlanishlarini shartli ravishda uch yo'nalishga bo'lish mumkin:

Tarixiy yondashuvlar: Akademiklar A.Asqarov, A.Sagdullayev va professor Q.Usmonov kabi olimlar tomonidan o'zbek davlatchiligi tarixi, Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi kabi mavzularda yangi konsepsiyalar yaratildi. Bu asarlar bo'lajak o'qituvchilar tafakkurida milliy paradigmalarni shakllantirish uchun xizmat qilmoqda.

Metodik yondashuvlar: A.Zunnunov, T.G'afforov kabi metodist olimlar o'z izlanishlarida ta'lim muassasalarida tarix fani qanday o'qitilishi kerakligi, muammoli darslarni tashkil etishning qonuniyatlarini ishlab chiqishdi [3].

Pedagogik-innovatsion yondashuvlar: R.Ishmuhammedov, M.Yuldashev va O.Musurmonova kabi pedagoglar tarix ta'limiga interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali talabalarda mantiqiy va ijodiy tafakkurni o'stirishning amaliy mexanizmlarini ko'rsatib berdilar [4].

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida kechadi. Ta'lim samaradorligi o'qituvchi mahorati va yaratilgan sharoit o'rtasidagi mutanosiblikka bog'liq.

Obyektiv omillar: Bu ta'lim tizimining davlat siyosati darajasidagi ko'rinishi bo'lib, o'quv jarayonini tashkil etishning normativ-huquqiy bazasi, oliy ta'lim muassasasining moddiy-texnik holati, axborot-resurs markazlarining zamonaviy adabiyotlar va arxiv materiallari bilan ta'minlanganligini o'z ichiga oladi.

Subyektiv omillar: Talabani shaxsiy psixologik tayyorgarligi, tarix faniga bo'lgan ichki motivatsiyasi, tadqiqotchilik qobiliyati hamda professor-o'qituvchining ilmiy-pedagogik salohiyati. Agar talabada o'tmishni anglashga nisbatan ichki ehtiyoj bo'lmasa, eng zamonaviy texnologiyalar ham kutilgan natijani bermaydi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni muayyan pedagogik shart-sharoitlar asosida tashkil etilgandagina kutilgan samarani beradi. Bunday shart-sharoitlar, birinchidan, ta'lim mazmunining tarixiy tahlilga yo'naltirilganligi; ikkinchidan, o'quv jarayonida muammoli vaziyatlarning muntazam qo'llanilishi; uchinchidan, talabalarni mustaqil izlanishga undovchi topshiriqlar tizimining mavjudligi; to'rtinchidan, o'qituvchi va talaba o'rtasida ilmiy muloqotga asoslangan hamkorlik muhitining yaratilishi bilan belgilanadi.

Mazkur jarayonda pedagogik muhit alohida ahamiyatga ega. Chunki tarixiy tafakkur buyruq yoki tayyor nazariy ma'lumotni yodlatish orqali emas, balki savol, bahs, muammo, dalil va xulosa asosida shakllanadi. Auditoriyada talabaga "voqea qachon bo'lgan?" degan savol bilan bir qatorda "nega aynan shu davrda yuz berdi?", "bu hodisaning ijtimoiy oqibatlar qanday bo'ldi?", "bu jarayonga turli tarixchilar qanday baho bergan?" kabi savollar berilishi uning tahliliy fikrlashini faollashtiradi.

Shuningdek, tarixiy tafakkurni rivojlantirishda o'qituvchining metodik mahorati hal qiluvchi omillardan biridir. O'qituvchi ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim shakllarini o'zaro bog'lay olishi, har bir mavzu doirasida talabani tarixiy muammo ustida fikrlashga olib kirishi lozim. Masalan, tarixiy shaxs faoliyatini o'rganishda faqat uning biografiyasini bayon qilish emas, balki uning qarorlari, davr talabi, muqobil imkoniyatlar va tarixiy natijalarini tahlil qilish talab etiladi. Bunday yondashuv talabani tarixiy voqelikka nisbatan beryoqlama emas, balki ko'p qirrali munosabat bildirishiga xizmat qiladi.

Pedagogik shart-sharoitlarning yana bir muhim jihati baholash tizimi bilan bog'liq. Agar talabani bilimi faqat sanalar va ta'riflarni qayta aytib berish darajasida baholansa, tarixiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyati cheklanadi. Shu sababli baholash mezonlarida tarixiy dalillarni izohlash, manbalarni solishtirish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, mustaqil xulosa chiqarish va o'z fikrini dalillar bilan asoslash kabi ko'rsatkichlar ustuvor o'rin egallashi lozim.

Tarixiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy quroli – bu malakali ishlab chiqilgan o'quv dasturlaridir. Bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kredit-modul tizimiga o'tilishi munosabati bilan fan sillabuslari

tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda. Tarixiy tafakkurni o'stirish nuqtai nazaridan o'quv dasturlariga qo'yiladigan asosiy talablar:

Faktologiyadan tahlilga o'tish: Dasturlar shunchaki sanalar va nomlarni yodlashga emas, balki "Nima uchun shunday bo'ldi?", "Boshqacha bo'lishi mumkinmidi?", "Bu voqeaning bugungi kundagi oqibatlari qanday?" degan savollarga javob izlashga yo'naltirilishi kerak.

Fanlararo integratsiya: Tarixiy tafakkur faqat "O'zbekiston tarixi" yoki "Jahon tarixi" fanlari doirasida cheklanib qolmaydi. U "Falsafa", "Tarixshunoslik", "Manbashunoslik", "Sotsiologiya" va eng asosiysi "Tarix o'qitish metodikasi" fanlari bilan integratsiyalashgan holda o'qitilishi zarur.

Mustaqil ta'limning salmog'i: Kredit-modul tizimining mantiqiy asosi sifatida talabalarga birlamchi manbalar ustida mustaqil ishlash uchun kengroq soat va topshiriqlar ajratilishi muhim shartlardan biridir.

Tarixchi uchun tafakkur – bu avvalo manbaga asoslangan tahlildir. Bo'lajak o'qituvchi tayyor darslikdagi xulosalarni yodlashi emas, balki shu xulosaga qanday kelinganini bilishi shart. Tarixiy tafakkurni rivojlantirishda birlamchi tarixiy manbalar bilan ishlash alohida metodik ahamiyatga ega. Chunki tarixiy manba talaba uchun tayyor bilim emas, balki mustaqil tahlil qilish, savol qo'yish, dalil izlash va xulosa chiqarish obyekti hisoblanadi. Manba bilan ishlash jarayonida talaba tarixiy voqea haqida faqat darslikdagi umumiy ma'lumotga tayanib qolmaydi, balki voqeaning bevosita guvohi bo'lgan hujjatlar, yozishmalar, farmonlar, xotiralar, statistik ma'lumotlar va boshqa dalillar asosida tarixiy haqiqatni anglashga harakat qiladi.

Bu jarayonda talabaga manbani shunchaki o'qish emas, balki uni tahlil qilish algoritmini o'rgatish muhimdir. Avvalo, manbaning kelib chiqishi, muallifi, yozilgan davri, maqsadi va ijtimoiy-siyosiy sharoiti aniqlanadi. Keyingi bosqichda manbadagi asosiy g'oya, muhim tarixiy dalillar, muallifning pozitsiyasi hamda ehtimoliy subyektiv yondashuvlari tahlil qilinadi. So'ngra mazkur manba boshqa manbalar bilan qiyoslanib, undagi ma'lumotlarning ishonchlilik darajasi baholanadi. Ana shunday bosqichli yondashuv talabalarda manbaga tanqidiy qarash va tarixiy xulosani dalillar asosida shakllantirish ko'nikmasini rivojlantiradi.

Tarixiy manbalar bilan ishlashning samaradorligini oshirish uchun seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlar faoliyatidan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda har bir guruhga bitta tarixiy voqea yuzasidan turli manbalar beriladi va ulardan voqeaga nisbatan o'z dalilli munosabatini ishlab chiqish talab qilinadi. Masalan, bir guruh rasmiy hujjat asosida, ikkinchi guruh tarixiy xotira yoki memuar asosida, uchinchi guruh esa zamonaviy ilmiy talqin asosida xulosa tayyorlaydi. Mashg'ulot yakunida guruhlar o'z fikrlarini himoya qiladi, qarashlar qiyoslanadi va umumiy ilmiy xulosa chiqariladi.

Bunday metodik yondashuv bo'lajak tarix o'qituvchisining keyingi pedagogik faoliyati uchun ham muhim tajriba vazifasini bajaradi. Chunki u kelgusida maktab o'quvchilariga tarixiy manbalar bilan ishlashni o'rgatishda faqat tayyor ma'lumot beruvchi emas, balki ularni izlanishga, savol qo'yishga va mustaqil dalillashga yo'naltiruvchi pedagog sifatida shakllanadi.

Manbalar bilan ishlash jarayoni quyidagi qadamlarni o'z ichiga oladi:

Tanqidiy tahlil: Talabalarga tarixiy hujjat asl yoki tarjima holida taqdim etiladi. Talaba hujjatning kim tomonidan, qachon, qanday siyosiy muhitda yozilganligini aniqlaydi.

Qiyosiy metod: Bitta voqeaga oid turli manbalarni solishtirish. Bu orqali talaba tarixda mutlaq haqiqat yo'qligini, har bir ma'lumotni saralash kerakligini anglaydi.

Matnni dekonstruksiya qilish: Tarixiy matn ortida yashiringan asl maqsadlarni o'qiy olish malakasini shakllantirish.

XXI asr talabalarining qabul qilish xususiyatlari o'zgargan. Ularda klip tafakkuri ustuvor bo'lgani uchun, tarixiy jarayonlarni vizuallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy-makon tafakkurini kengaytirishda raqamli texnologiyalar bebaho vositadir:

Interfaol xaritalar va GIS: Davlatlar chegaralarining o'zgarishi, qo'shinlarning harakati, Buyuk Ipak yo'li tarmoqlarini animatsion xaritalar orqali ko'rsatish. Bu quruq matndan ko'ra talaba xotirasida chuqurroq iz qoldiradi.

Virtual muzeylar va 3D modellash: O'zbekiston va jahonning nufuzli muzeylariga virtual sayohatlar

uyushtirish. Vayron bo'lgan tarixiy obidalarining 3D maketlari ustida ishlash.

Hujjatli filmlar tahlili: Tarixga oid multimedia mahsulotlari va videolavhalarini ko'rish hamda ularni tanqidiy tahlil qilish.

Tafakkur kabi murakkab psixologik-kognitiv jarayonni o'lchash uchun majmuaviy yondashuv talab etiladi. Pedagog olimi Sh.A. Abdullayeva ta'kidlaganidek, talabalarning kasbiy va intellektual tayyorgarligini baholashda faqat bilim emas, balki o'sha bilimni amaliyotda qanday qo'llay olishi asosiy mezon bo'lishi lozim. Bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkurning shakllanganligini quyidagi uchta asosiy mezon orqali baholash maqsadga muvofiq:

Motivatsion-qadriyatli mezon: Talabaning tarix faniga, uning muammolarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi, milliy g'urur va tarixiy xotiraga hurmat bilan munosabatda bo'lishi.

Kognitiv-mazmunli mezon: Tarixiy faktlar, sanalar, tushunchalar va qonuniyatlarni bilish darajasi, sabab-oqibat aloqadorligini mantiqiy idrok etishi.

Faoliyat-amaliy mezon: Olingan bilimlarni amaliy pedagogik jarayonda qo'llay olish, muammoli vaziyatlardan chiqish va xulosa yasash malakasi.

Ushbu mezonlar asosida talabalarning tafakkur darajasi 3 ta bosqichga ajratiladi:

Past (reproduktiv) daraja: Talaba voqea-hodisalarni shunchaki xotirasida saqlaydi va qaytarib aytib beradi. Tahlil qilish, shaxsiy fikr bildirish va manbalarga tanqidiy yondashish qobiliyati past.

O'rta (interpretatsion) daraja: Tarixiy jarayonlarni qisman tahlil qila oladi, o'qituvchi yordamida muammoli vaziyatlarning yechimini topadi, biroq xulosa chiqarishda an'anaviy qarashlardan chetga chiqa olmaydi.

Yuqori (kreativ-analitik) daraja: talaba voqelikni mustaqil va tanqidiy tahlil qiladi, bir necha yondashuvlarni qiyoslaydi, sabab-oqibat aloqalarini chuqur anglaydi va pedagogik faoliyatda nostandart yechimlarni taklif qila oladi [6].

O'tkazilgan nazariy tahlillar xulosalariga tayanib, oliy ta'lim tizimi hamda bo'lajak tarix o'qituvchilari uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi:

Mustaqil ta'limni individuallashtirish: talabalarga beriladigan mustaqil ish mavzulari shunchaki "Referat" yoki "Konspekt" shaklida emas, balki ilmiy maqola tayyorlash, arxiv hujjatini o'qish va unga sharh yozish kabi tadqiqotchilik ko'nikmalarini talab etuvchi formatda berilishi shart.

Raqamli muhitni kengaytirish: tarix fakultetlarida axborot-resurs markazlarini eng so'nggi elektron arxiv materiallari, xorijiy jurnallar va 3D virtual tarixiy dasturlar bilan ta'minlash hamda talabalarning chet tillarini mukammal o'rganishini rag'batlantirish zarur.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish bir martalik pedagogik ta'sir natijasi emas, balki nazariy bilim, manbaviy tahlil, muammoli topshiriqlar, raqamli vositalar va baholash mezonlari uyg'unligida amalga oshiriladigan izchil jarayondir. Mazkur jarayonda talabaning mustaqil fikrlashi, tarixiy dalilga tanqidiy munosabati va pedagogik vaziyatda tarixiy bilimni qo'llay olish malakasi asosiy natija sifatida qoraladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish uzluksiz, murakkab va o'ta mas'uliyatli jarayondir. Zero, o'tmishni chuqur tahlil qila oladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni xolis anglaydigan o'qituvchigina kelajak avlodda sog'lom dunyoqarash va mustahkam irodani tarbiyalay oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 112.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 29.
3. Zunnunov A. va boshq. Tarix o'qitish metodikasi (oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik). – Toshkent: O'qituvchi, 2000. – B. 45–48.
4. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. –

Toshkent: Nihol, 2013. – B. 156–159.

5. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik diagnostika. – Toshkent: Universitet, 2019. – B. 45–48.

6. Yuzlikayev F.R. Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarligi tizimi. – Toshkent: Fan, 2007. – B. 102–105.